

HAMID OLIMJONNING MUSIQIY SHERIYATI

Рузметов Темурабек Улуғбекович
Ўзбекистон давлат консерваторияси

“Qadim zamonlardan she’riyat bilan musiqa onaning ikki egizak farzandi kabi o’xshash va yaqin bir zarvaraqlarning ikki sahifasi kabitutash va bir butun bo’lib ketgan”.

Erkin Vohidov

Adabiyot va musiqa mushtarakligiga bot-bot yuzlanar ekanmiz, ko’z oldimizda doimiy ravishda, navqiron baxt elchisi Hamid Olimjon gavdalanaveradi. Shoirning ijodiga bir necha marotaba yuzlashsak ham, aniqki, o’zimiz izlagan narsani topa olamiz. Bu adibning serqira va serhosil ijodidan dalolatdir. Hamid Olimjon o’zining qisqa muddatli hayotida kelajak avlodga o’rnakli darajada, xalqqa, adabiyotga husan san’at olamiga samarali xizmat qildi. Boshqacha qilib aytganda, o’zidan katta xazina qoldirgan deya ayta olamiz.

Nega aynan Hamid Olimjon? Chunki uning boy va serqirra ijodiy bisotida o’rin olgan beg’ubor hislarga to’la she’riyati, xalqimizning iymoni, kuch va fidoiyligini aks etuvchi hikoya va dostonlari, ajoyib tarjimalari o’zining betakror badiiy talqini, bir vaqtning o’zida soddaligi, chuqurligi, xalqchilligi hamda san’atkorlik iste’dodiga egaligi bilan ajralib turadi.

Xalqqa ayting, men aslo o’lganim yo’q,
Yov qo’liga taslim ham bo’lganim yo’q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman!

Ayni haqiqat, mana necha yillar o’tsa ham, shoirning nomi, uning she’rlari, o’zbek millati uchun qilgan jonbozliklari doim dilimizda hamda qayta-qayta tilimizda jarang sochmoqda.

Hamid Olimjon ko’plab janrlarda ijod qilgan. Uning shoirlik ijodidagi ilk she’riy to’plami – “Ko’klam” 15 yoshida bosilib chiqqani she’riyat osmonida yorqin iste’dod kirib kelayotganidan dalolat edi. Shundan so’ng ijodkorning “Olov sochlar”, “Poyga”, “O’lim yovga” kabi to’plamlari uning eng sara she’rlaridan yig’ilib tashkil topdi. Shoir she’riyati juda sodda va qalbga yaqin hislar bilan limmo-limdir.

Muallifni hayotda musiqaga yani xalq ijodiga, jumladan, baxshilar san’atiga e’tibori o’zgacha bo’lib, uning folklorga alohida mehr-muhabbat qo’yganini ko’rishimiz mumkin. Fozil shoirga bag’ishlangan “Kuychining xayoli”, Abdulla shoir Nurali o’g’liga atalgan “Do’mbiraning maqtovi”, “Shodiyona”, “Yigitlarni frontga o’natish”, “Xat” va “Bo’l omon”, “Qishloq qizi” kabi she’rlari folklor ruhi bilan chuqur sug’orilgan ajoyib asarlar sifatida adabiyotimiz sahifalaridan munosib joy oldi.

Manbalarda kelishicha adibning xalq kuy-qo’shiqlariga, folklor san’atiga shinavandaligi yoshligidan bo’lgan. Bunda uning onasi Komila ayaning o’rni katta.

U har kuni kichik Hamidjonga o'zbek xalq ashularini aytib erkalar, ovuntirar edi. Shoirning ruhiga milliy ohanglar singib, ular yordamida lirik, musiqiy tafakkurga ega, san'at asarlarini yaratishga erishdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yana bir misol, 1937 yili yozilgan "Do'mbiraning maqtovi" she'riining mazmuni ham folklorga xos poetik shakl bilan uyushgandir. Bunda xalq baxshilari repertuaridagi asosiy janrlardan biri bo'lgan termaning badiiy komponentlaridan andoza olingan. Jumladan, shoir xalq baxshilarining termalarida barqarorlik kasb etgan **tajnis**¹ san'atini qo'llab, o'z ijodida lirik qahramon tilidan do'mbiraga murojaat etadi:

So'z boshlayin endi yaxshi, yomondan,
Ko'zlarimning nuri bo'lgan do'mbiram.
Sen qo'limda kezib o'tdim jahondan,
Yuragimning to'ri bo'lgan do'mbiram

She'riy qatorlarni o'qigan zahotiy oq uning musiqiy talqini ko'z ongimizda gavdalanadi. Bu bejiz emas, albatta. So'zning sehri va nozik qofiyasini his qilgan shoir musiqa ijodkorlari uchun keng imkoniyat ochib beradi. Bu borada xalqimiz sevib, ardoqlab kelgan ajoyib "O'rik gullaganda" qo'shig'ini yodga olamiz.

Hamid Olimjon lirikasining eng mashhur namunalaridan biri ham "O'rik gullaganda" she'ridir:

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi.

Bu she'rda olg'a surilgan baxt mavzusidan, tabiat manzarasi tasviridan tashqari, bizni o'ziga rom etuvchi yana bir narsa bor, bu – she'rga badiiy joziba bag'ishlab turgan shakl, musiqiy ohang va yoqimli bir ruhdir.

So'zingning sharpasi tekkanda olam bob, bob kuygay,
Dengizlar, daryolar, hattoki ko'llarda xubob kuygay.
Kamondek qoshlaring, kipriklaringdin o'q otar doim,
Sening yoding bilan tinmay hama nozu itob kuygay.

"Kuygay" qo'shig'i "Muqanna" musiqali dramasiga kuy bastalagan mashhur o'zbek bastakori va hofizi Yunus Rajabiy hamda uning farzandi Hasan Rajabiy ijrosida xalqimiz o'rtasida mashhur bo'lgan. Hamid Olimjonning bu mashhur g'azali hozir ham ko'plab xushovoz xonandalar ijrosida aytilib kelinadi.

G'azal aruz she'riy tizimining hazaji musammani solim bahrida yozilgan bo'lib, undagi uzun va qisqa hijolar tartibi quyidagi shaklga ega: Mafoilun mafoilun mafoilun mafoil.

Xayolimda bo'lding uzun kun,
Seni izlab qirg'oqqa bordim.
Och to'lqinlar pishqirgan tunda,
Topib ber, deb oyga yolvordim...

¹ **Tajnis (jinsdosh)** - she'r baytida ma'no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'ati

O'zbek Estrada musiqasi asoschilaridan bo'lgan Botir Zokirov ijrosidagi "Xayolimda bo'ldin uzun kun" nomli qo'shiq ham Hamid Olimjon qalamiga tegishli.

Bundan tashqari Hamid Olimjon she'rlariga ko'plab romanslar, qo'shiq va ashulalar yaratilgan. Ular orasida "Eng gullagan yoshlik chog'imda" she'riga yaratilgan qo'shiqlar alohida o'rin tutadi. O'zbekiston xalq artisti, taniqli kompozitor Ikrom Akbarov musiqasiga bastalagan mazkur qo'shiq tildan-tilga, dildan-dilga o'tib, mashhur estrada qo'shiqlari qatoridan o'rin oldi. "Chinor ostidagi duel" filmining eng qizg'in pallalarida yangrovchi bu qo'shiqning o'ziga xos shirasi va bayon etish uslubi mavjud:

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rди ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni...

Hamid Olimjonning "Eng gullagan yoshlik chog'imda" she'riga O'zbekiston Respublikasi sa'at arbobi, kompozitor, professor Rustam Abdullayev ham musiqa bastalagan. R. Abdullayev mazkur she'rni o'zining taniqli "Sadoqat" operasida Hamid Olimjonning ariyasi sifatida qo'llaydi. Bu yerda shoir tomonidan hayotining mazmuni bo'lgan Zulfiyaga murojaat qilgan holda yaratilgan ariya klassik bayon etish uslubi yordamida rivojlantirilgan.

Yoshlik, bahor, muhabbat Hamid Olimjonning aksariyat she'rlarida kuylangan. Ularning har biri o'ziga xos uslubga, falsafiy yondashuvga ega bo'lib, abadiy mavzularni o'zida mujassamlagan. Shu sababli shoirning she'rlari ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov N., Hamid Olimjon. Shoir hayoti va ijodidan lavhalar. T., 1979
2. Mukammal asarlar to'plami [Yuj.li], 1 – 10-j.lar, T., 1979-84
3. Hamid Olimjon (Uzbek). Ensiklopedik lug'at. 2. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi. 1990.
4. <https://tafakkur.net/hamid-olimjon.haqida>